

**BOSHLANG'ICH SINFLARDA LEKSIK KO'NIKMALARNI
SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLINGVISTIK VA METODIK ASOSLARI****Zokirjonova Madina Zohidjon qizi****Namangan Davlat Pedagogika Instituti****ijtimoiy fanlar fakulteti bakalavr talabasi****E-mail: madinazokirjonova95@gmail.com****Telefon: +99893134381****<https://doi.org/10.5281/zenodo.16313723>**

Annotatsiya: “O’quvchilarga individual yondashuv va motivatsiyasini oshirish orqali o’quvchilarda o’rgatish samaradorligiga erishamiz”. Namangan Davlat Pedagogika Instituti bakalavr talabasi Azimov Samandar Murodjon o’g’li

Annotatsiya: Ushbu maqolada Ingliz tilini o’rganayotgan o’quvchilarda til ko’nikmalarini rivojlantirish haqida tushunchalar va metodik usullar ko’rsatilgan. Xorijiy tilni o’rganayotgan o’quvchilarda psixologik, yoshga doir va o’qituvchining metodik usullari tahlil etilgan holda ma’lumotlar berilgan.

Kalit so’zlar: O’rganish, yoshga doir xususiyat, metodika, leksik ko’nikma, lingvistika.

Аннотация: В данной статье представлены понятия и методические приемы развития языковых навыков у учащихся, изучающих английский язык. Представлена информация об психологических, возрастных особенностях и методических приемах учителя у учащихся, изучающих иностранный язык.

Ключевые слова: Обучение, возрастные особенности, методика, лексический навык, лингвистика.

Annotation: This article presents concepts and methodological approaches to developing language skills in students learning English. It provides information analyzing psychological, age-related, and teacher’s methodological methods in students learning a foreign language.

Keywords: Learning, age-related characteristics, methodology, lexical skill, linguistics.

Hozirgi kunda o’quvchilarning bilim, ko’nikma va malakalarini oshirish o’qituvchilari uchun kundan- kunga dolzarb va ahamiyatli jarayon bo’lib bormoqda. O’quvchilarga dars jarayonini tashkil etish uchun metodikalar va zamonaviy texnikalar ishlab chiqilmoqda. O’quvchilarga dars jarayonini yaxshi tushuntira olishi uchun o’qituvchi nafaqat metodik usullarni, o’z mutahassisligini bilishi bundan tashqari undan psixologiya bilishi ham talab etiladi. Bilim darajasi yuqori bo’lgan bo’lgan o’qituvchilar albatta psixologik tomonlama ham yaxshi ko’nikmaga ega hisoblanadilar. Yuqorida ta’kidlab o’tgan bilim, ko’nikma va malaka kabi izoh berib ketsak fikrimizni yanada tushunarli ifoda etgan bo’lamiz.

Bilim deb bir soha yoki mavzu bo’yicha egallangan nazriy tushuncha, fakt va ma’lumotlarga aytamiz. Ko’nikma bilimlarni amaliyotda qo’llay olish, tajriba orqali shakllanib muayyan vazifalarni bajara olish jarayonidir. Malaka esa ko’nikmalarni biror sohada qo’llay olish uchun zarur bo’lgan biliomlar to’plami. Bu tushunchalar o’zaro bir-birini to’ldirib keladi. Masalan: Harflari o’rganish (bilim), yozishni mashq qilish (ko’nikma), yaxshi yoza olish esa malakadir. O’quv jarayonida shakllantirish uchun O’quvchilarda kommunikativ savodxonlik ko’nikma va malakalarini shakllantirishning didaktik asoslarini tadqiq qilishda eng avvalo kommunikativ savodxonliklarini ijtimoiy me’yorlarini aniqlash muhim. Ijtimoiy me’orning ko’lamini belgilashda bolalarning yosh va taraqqiyot darajasi, fikrni anglash hamda ifodalash

ehtiyoji, moddiy borliqni bilish ehtiyoji, turli darajadagi axborotlarni qabul qilish, idrok etish darsjasi, jamiyatning turli a'zolari bilan muloqotga kirisha olish ko'lamini aniq hisobga olish lozim^[1].

Pedagogdan dars jarayonini to'g'ri shakllantirish talab etiladi. Shakllantirilgan dars uning qay darajada mahoratli ustoz ekanligini namoyish qilib beradi va aniq ko'rsatadi. Bu so'z pedagogning kasbiy mahoratining egasi ekanligini namoyish etadi. O'qituvchi dars jarayonida o'quvchilari bilan qiladigan o'zaro suhbat, pedagogik muomilada dars jarayonini tashkil etishi, ularga bosim va hech qanday shartlarsiz o'rgata olish ko'nikmasidir. O'qituvchi didaktik yondashuvda o'quvchilarga dars berishi esa uning darsining samarali bo'lishiga yordam beradi.

Pedagogik takt va didaktik uslub uyg'unligida darslar natijasi yaqqol ko'zga tashlanadi. O'qituvchidan ayniqsa, til o'rgatuvchi ustozdan qo'shimcha tarzda talab etiladigan yana bir yo'nalish bu uning lingvopsixolog bo'lishidir. Lingvopsixologiya lingvistika va psixologiya fanlari kesimida rivojlanayotgan fan bo'lib, u nutq jarayonining mazmuni, kommunikativ ahamiyati, nutq aktining muayyan ijtimoiy-amaliy maqsadga yo'naltirilganligi, ularning muloqot qiluvchilarga ta'siri doirasini o'rganadi^[2]

Metodika va psixologiya ajramas ravishda davom etadi. Ikkisi bir-birini to'ldirgan holda rivojlanadi va maqsad vazifalari to'g'ri ravishda amalga oshadi. O'quvchining dars jarayonida o'zini tutishi, uning vazifalarni qilganligi, yoki diqqatining jamlashi kabi tushunchalar buning isboti hisoblanadi. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning leksik jihatdan bilimlarini oshirish uchun o'quvchidan alohida yondashuv talab etiladi. O'quvchilardan leksik ko'nikma va malakalarini oshirishning asosiy jihati ularni og'zaki so'zlashuv jarayoniga tayyorlash hisoblanadi. Og'zaki nutqning ahamiyati esa o'quvchilarning so'zlardan sinonim, antonim, iboralar va shu kabi so'z turlarini to'g'ri qo'llash maqsadida amalga oshadi. Xorijiy tilni o'rganish davomida o'quvchilardan alohida e'tibor talab qilinadi. Og'zaki nutq ko'nikmalarining mukammal shakllantirish darajasi uzoq muddatli xotiradagi so'zlardan foydalanish ko'nikmasi, so'zlarni tanlay olish, ya'ni xorijiy sinonimiyani ishlata olish ko'nikmalarini o'z ichiga oladi^[3].

Jahon miqyosida keng ildiz otib borayotgan ingliz tilini o'rganish jarayonida o'qituvchilardan til o'rgatish jarayonini tez va sofati o'rgatish usullari talab qilinayapdi. O'quvchilar guruhi ichida e'tibor talab etilayotgan guruh boshlang'ich va maktabgacha ta'lim tizimida bo'lgan o'quvchilar qatlami hisoblanadi. Ingliz tilini maktabgacha va boshlang'ich sinf o'quvchilariga o'rgatish jarayoni o'smirlarga qaraganda ancha qiyinroq kechadi. Bolalarning psixologiyasidan kelib chiqqan holda emotsional va nutqiy rivojlanish darajasini hisobga olib alohida yondashuv asosida o'qitish metodikasini ishlab chiqish zarur. Maktabgacha va boshlang'ich sinf o'quvchilari yoshidagi bolalar kattaroq yoshdagi bolalarga nisbatan e'tiborning pastligi, bir narsaga uzoq vaqt diqqat bilan qaramasligi kabi muammolarni keltirib chiqaradi. Bolalarda o'yin orqali gramatik qoidalarni ham dars jarayonida o'rgatilishi kerak

¹ Saydaliyeva M.A. MAKTAB O'QUVCHILARINING KOMMUNIKATIV SAVODXONLIGINI TA'MINLASH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA. Namangan Davlat Universiteti. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. 08-09.04.2022. B.259-263.

² Saydaliyeva M. A. Boshlang'ich sinflarda Ingliz tilini o'qitishda o'quvchilarning og'zaki nutq kompetensiyasini shakllantirishning ilmiy-nazariy asoslari. SamDu ilmiy axborotnoma. 2(138), 2023. B.81

³ Saydaliyeva M. A. oshlang'ich sinflarda ingliz tili o'qitishda o'quvchilarning og'zaki nutqni shakllantirishda gapirish va tinglab tushunish ko'nikmalarining uzviyligi // Международный научный журнал «Научный импульс». — № 31 (100), часть 1, Март 2025. — С. 53-60.

bo'lgan mashg'ulotlarni ham tashkil etsagina ularning diqqat e'tiborini o'z hohishlari bilan jalb etish mumkin bo'ladi. Bu yosh davridagi bolalarda yangi til o'rgatishning qiyinchilik jihatlaridan yana biri bolalarda o'z ona tilisi hali to'liq shakllanmaganligida yuzaga keladi. Ona tilidagi so'zlarni Ingliz tilini o'rganayotgan o'quvchilarda almashtirib yuborishlari ham mumkin. Bolalarda til o'rgatish jarayonini o'rgatish uchun asosan ko'rgazmali materiallar va rag'bat berish, motivatsiyasi oshirish usullarida ham natijaga erishiladi. O'quvchilarga dars davomida qatnashishlariga qarab leksik ko'nikmalarini oshirish maqsadida har bir o'rgangan so'ziga uning ma'nodoshi va qarama qarshisiga so'z topish usuli orqali o'quvchilarning leksik boyliklarini oshirish mumkin bo'ladi. O'quvchilarda o'rganishga bo'lgan ishtiyoq motivatsiyalarini oshirish dars jarayonini samaraliroq qilishning yana bir usuli hisoblanadi. Ularni dars davomida qilgan xato va kamchiliklariga ko'z yumib, birozdan so'ng o'zlariga bioldirmasdan to'g'irlab ketish yordamida o'quvchining darsga bo'lgan ishtiyoqi o'sadi. Kichik yosh davrlarida o'quvchilarni o'rganishga bo'lgan ishtiyoqlarini oshirish uchun o'qituvchilardan har bir o'quvchiga alohida yondashish orqali dars o'tish talab etiladi. O'quvchilarda leksik ko'nikmasini shakllantirayotgan davr mobaynida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan yana bir muammo o'quvchilarning talaffuz jaroyonida qiyinchiliklari hisoblanadi. Ko'p kichik yoshdagi o'rganuvchilar yangi tilni o'rganishda shu kabi muammolarga duch kelishadi. Bu kabi muammolarni oldini olish uchun o'qituvchidan alohida yondashuv va kreativlik talab qilinadi. Maktab va maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berishda ularning bilim va savodxonliklarini oshirishda yuzaga keladigan yana bir jihat o'quvchilar yoshiga mos ravishda to'g'ri keladigan darsliklarning yetishmasligi yoki ular uchun mos emasligi hisoblanadi. Ta'lim tizimida yuzaga kelayotgan shu kabi muammoli vaziyatlarni oldini olish uchun o'qituvchidan izlanish va to'ztab qolmaslik talab eetiladi.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Saydaliyeva M.A. MAKTAB O'QUVCHILARINING KOMMUNIKATIV SAVODXONLIGINI TA'MINLASH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA. Namangan Davlat Universiteti.Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya.08-09.04.2022.B.259-263.
2. Saydaliyeva M. A. Boshlang'ich sinflarda Ingliz tilini o'qitishda o'quvchilarning og'zaki nutq kompetensiyasini shakllantirishning ilmiy-nazariy asoslari.SamDu ilmiy axborotnoma.2(138),2023.B.81
3. Saydaliyeva M. A oshlang'ich sinflarda ingliz tili o'qitishda o'quvchilarning og'zaki nutqni shakllantirishda gapirish va tinglab tushunish ko'nikmalarining uzviyligi // Международный научный журнал «Научный импульс». — № 31 (100), часть 1.
4. Azimov S.M. Ingliz tilini o'rgatish: maqsadlarni belgilash va motivatsiyani yuksaltirish. NamDPI "iqtidori talabalar ilmiy xabarlar" ilmiy-uslubiy jurnali. Maxsus son. 2024.B- 9-16.
5. Maxammadaliyeva, S. A., & Azimov, S. M. (2024). Methods of Teaching English for Secondary School Students during Era of Modernization. Universal xalqaro ilmiy jurnal, 1(7), 195–196.
6. Azimov Samandar Murodjon o'g'li. The place and significance of the English language worldwide // International Journal of Scientific Researchers. — Volume 5, Issue 2, 2024. — Impact Factor 7.293. — 31.05.2024.

7. Dehqonova Guljahon Ahmadjonovna, Azimov Samandar Murodjon o'g'li. Axborot va uning mazmuni, axborotdallashish davrida xorijiy tillar va ularning axborotlashgan jamiyat taraqqiyotidagi o'rni va ahamiyati // Respublika ilmiy-amaliy anjuman «Ilm-fanning dolzarb masalalari: muammo va yechimlar», I qism, Toshkent, 2024, 22-23 may. – Toshkent: NIF MSH, 2024. B. 288– 214-bet.
8. Boltaboyeva Ma'rifatxon Baxromjon qizi, Azimov Samandar Murodjon o'g'li. (2025). TARJIMANING SOHALAR BO'YICHA QOLLANILISHI VA FAN YUZASIDAN TUTGAN O'RNI. Hamkor Konferensiyalar, 1(14), 1399–1402.
<https://academicsbook.com/index.php/konferensiya/article/view/1974>
9. Azimov Samandar Murodjon o'g'li, Darvishaliyeva O'g'ilxon Adhamjon qizi. Learning a new language: difficulties and solutions // “Ona tili va adabiyot fanlarini o'qitishda zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalar” Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari, Namangan, 10-11 oktabr, 2024-yil. – Namangan: universaljurnal.uz, 2024. B.234-235.

